



L.BUDAGOVNING “СРАВНИТЕЛЬНЫЙ СЛОВАРЬ ТУРЕЦКО-ТАТАРСКИХ НАРЕЧИЙ” LUG‘ATIDA CHIG‘ATOYCHA ZONIMLARNING BERILISHI

Mahliyoxon Tuxtasinova Shavkatjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent

davlat o‘zbek tili va adabiyoti

universiteti o‘qituvchisi

E-mail: mahliyoshavkatjonovna@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-6849-0603

Tel: +998999997953

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-February 2024 yil

Ma’qullandi: 24- February 2024 yil

Nashr qilindi: 28- February 2024 yil

KEY WORDS

*chig‘atoycha leksema, lug‘at, älmäl,
täbāngu, inäk, sätäy, zoonim.*

ABSTRACT

Mazkur maqolada Lazar Zaharovich Budagovning “Сравнительный словарь турецко-татарских наречий” lug‘at tarkibiga kiritilgan chig‘atoycha zoonimlar guruhlariga ajratilgan holda namunalar keltirilgan. Ularning etimologiyasi tarixiy manbalarda aks etgan ma’nolarini keltirish asnosida yoritilgan. Alisher Navoiy asarlaridan leksemalarga aloqador parchalar keltirilgan. Tarixiy lug‘atlar yordamida izohlangan.

L.Z.Budagovning asosiy ilmiy asarlari ro‘yxatida ikki jildan iborat “Сравнительный словарь турецко-татарских наречий, со включением употребительнейших слов арабских и персидских и с переводом на русский язык” alohida o‘rin tutadi. XIX asrning ulkan turkiy lug‘atlaridan biri bo‘lgan ushbu asarni tuzish uchun boy tilga oid va ekstrolingvistik materiallar muallif tomonidan bir qancha manbalardan misqollab yig‘ib chiqilgan. Lug‘atga ko‘plab sharqiy xalqlar tilidagi faol so‘zlar kiritilgan. Shu bois ular qiyoslash jarayonida xalqlarning yozma yodgorliklari, turkiy tillardagi so‘zlashuv va tarjima lug‘atlari hamda adabiy merosiga oid asarlar matnlaridan foydalanilgan¹. Lug‘atda chig‘atoycha leksemalar ulushi salmoqlidir.

Chig‘atoycha leksemalar mavzu guruhlariga ajratgan holda tahlillar olib borilganda zoonimlar guruhiga mansub leksemalar yuzasidan tahlillar keltirilgan. Hozirgi turkiy tillar lug‘at tarkibidan o‘rin olgan ko‘pdan-ko‘p qushlar, hasharotlar, yovvoyi va uy hayvonlarining nomlari umumturkiy leksikaning qadimgi qatlamiga borib taqaladi². O‘zbek tilining lug‘at tarkibi, xususan, zoologik terminologiya o‘ziga xos tarixiy taraqqiyotni bosib o‘tgan. Qolaversa, eski o‘zbek adabiy tilida qo‘llangan har bir so‘z, zoonim kelib chiqishi, turli ma’nolarni ifodalashi, xilma-xil o‘zgarish va yangiliklarni qabul qilish xususiyatiga ko‘ra

¹ Tuxtasinova M. L. Budagovning “Сравнительный словарь турецко-татарских наречий” lug‘ati uchun asos bo‘lgan manbalar // O‘zbekiston: Til va madaniyat. Lingvistika. –Toshkent, 2022, vol 2 (1). –B. 88-111.

² Абдушукуров Б. XI-XIV асрларга оид ёзма манбалар тили. – Тошкент: Nodirabegim, 2020. – Б. 7.

muayyan tarixga ega³. XI – XIV asrlarda yaratilgan turkiy yozma manbalar matnida qo'llangan zoonimlar bo'yicha B. Abdushukurov, B. Zaripov kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan⁴.

a) ot va abzallarni so'zlar: *أَلْمَلْ almāl* – “qorinbog', ayil, otning qornidan o'tkazib bog'lanadigan charm kamar”, *تَبْغُونْ tībāgu* – “egarning terili qismi, uzangi”, *تَزْگِینْ tizgīn*, *tüzgun*, *tiskīn* – “jilov”, *تُورْغُی tūrğay* – “ot uchun yopqich”, *تُورُوق torūq* – “1) qora yolli va qora dumli saman ot 2) (طوغرو) qarang “طورمق غنچى، غنچى” *yunči* – “otlarni yopinchiqni chaynashdan qaytaruvchi ularning bo'yniga bog'lab qo'yiladigan tayoq”, *قَابْتَالْ qabtāl*, *qaptāl* – “1) otning otliq oyoqlari bilan qisib oladigan biqini 2) yonida, yaqinida”, *چُنَاغْ čināq*, *čünāy*, *jünāy* – “egar qanotlari”, *حَنَه hanä* – “egarning chiqib turgan joyi, o'qi”, *سِيرِم sirim* – “uzangi kamari”, *شَرْدَقْ širdāq* – “egarning ostidan yopiladigan yopqich”, *čünbül* – “qora yoki qizil va oq dog'li otning rangi”;

Hozirgi o'zbek adabiy tilida “ot yoki eshakning qornidan tortib, egarga mahkamlanadigan yoki qornidan o'tkazib, arava shotisiga bog'lanadigan enli tasma; qorinbog'ich” (O'TIL, V, 344) ma'nosini o'zida aks ettiruvchi *qorinbog'* leksemasi o'rnida qadimgi turkiy tilda ishlatilgan *أَلْمَلْ almāl* leksemasi “qorinbog'” ma'nosi bilan birga “ayil, otning qornidan o'tkazib bog'lanadigan charm kamar” (BD, I, 88), “egar bog'ichi” ni ham anglatgan (RSL, I, 833).

“Ot, eshak va boshqa hayvonlarni bog'lash yoki qantarib qo'yish uchun xizmat qiladigan, uchi suvliqqa yoki boshvoqqa biriktiriladigan uzun tasma yoki chizimcha”ni (O'TIL, IV, 83) anglatuvchi *jilov* so'zi o'rnida L. Budagov lug'atida *تَزْگِینْ tizgīn*, *tüzgun*, *tiskīn* (BD, I, 354) leksemasi fonetik variantlari bilan qayd etilgan. Qadimgi turkiy tilda ham “ish hayvonini boshqarish uchun xizmat qiladigan chizimcha”, “jilov” ma'nosini (O'TEL, 334) ifodalovchi *tizgīn* “yurgiz-” ma'nosini anglatgan *tiz-* fe'lining “takror” ma'nosini ifodalovchi *-gi* qo'shimchasi olgan shaklidan qo'shimchasi bilan yasalgan (ESTYA, III, 221): (*tiz-* + *gi* = *tizgi-*) + *n* = *tizgin* shaklini hosil qilgan leksema hozirgi o'zbek adabiy tilida jilovdan tashqari ko'chma “boshqarish vositasi, boshqaruv” semasiga ega: *Yoshlarda hayo yo'q. Yo'q, ayb onasida, tizginini bo'sh qo'ydi*. A. Qahhor, “Xotinlar” (O'TIL, IV, 83).

b) chorvachilik va unga aloqador so'zlar: *أَسَاقُ asöpqu* – “qo'yning bel suyagi”, *إِنَاكْ ināk* – “sigir”, *اُؤْچَا üčö, h-* “qo'y, echkinning orqa, yelka qismi”, *اُونْقُون unqun* – “belgi (hayvonlarga maxsus qo'yiladigan)”, *اُؤْ uy* – “buqa”, *بُتُ bitü* – “tuya”, *بُوتَا botä* – “1) bir yoshli tuya bolasi, 2) o'g'il, 3) بُوْتَه=بُوتاق=بُوتاق büzraq – “tuyaning tumshug'idagi tayoqcha”, *بُوغُرا boğura*, *boğra* – “ikki o'rkachli tuya”, *چَالَمَه čälämä* – “echki yoki qo'y go'ngi”;

Hozirgi o'zbek adabiy tilida “buzoqlagan urg'ochi qoramol”ga (O'TIL, III, 493) nisbatan qo'llanuvchi *sigir* leksemasi (O'TELda “urg'ochi qoramol”) qadimgi turkiy tilda asli *siyir* tarzida talaffuz qilingan (Devon I, 344). O'zbek tilida *i* unlilarning qattqlik belgisi yo'qolgan, *γ* undoshi *g* undoshiga almashgan: *siyir* > *sigir* (O'TEL, 284).

Qadimgi turkiy til manbalarida bu leksemaning ma'nodoshi *ināk* (DTS, 209, RSL, I, 1442) va uning *iñāk* fonetik varianti ham keltirilgan: *iñāk bozayuladi* – sigir buzoqladi (DTS,

³ Абдушукуров Б. Алишер Навоий асарларидаги зоонимлар. Алишер Навоий ва XXI аср мавзуидаги Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Тошкент: Tamaddun, 2017. – Б. 220.

⁴ Абдушукуров Б.Б. XI-XIV аср туркий ёзма манбалар тилидаги зоонимлар. Филол.фан. номз.... дисс. – Т., 1998. – Б. 207; Абдушукуров Б. “Қисаси Рабғузӣ” асаридаги зоонимлар. Лингвист IV. –Т.: Akademnashr, 2013. –Б.18; Зарипов Б. Зоонимларнинг бадиий санъат турларини ҳосил қилишдаги иштироки. Филол.фан. номз.... дисс. – Т., 2002. –Б. 128.

211). V. Sevortyan bu leksemani "sigir" dan tashqari "urg'ochi; xotinchalish" (ESTYA, I, 358) ma'nolarini qayd etadi. L. Budagov leksemaning chig'atoycha so'z ekanligini ta'kidlab, *inäk* shaklida "sigir" (BD, I, 97) ma'nosini ifodalashini ta'kidlaydi.

d) otning yoshini ifodalovchi so'zlar: أرغماق ، أرغماق ، أرغماق *äryamāq, äryīmoq, äryumoq* – "arg'umoq, arab otlari zotiga mansub (arablardan turkmanlarga, ulardan esa butun O'rta Osiyoga tarqalgan)", بايتال (د، ط) *bäytäl (t, d)* – "baytal", چيرغاولانغه *čiryavlānyä* – "nazarimda bu so'zlarni alohida otlarning yoshini anglatuvchi so'zlar sifatida qabul qilish kerak, masalan ... olti yoshli ot (muallif izohi)", دونان *dönān* – "4 yoshli erkak ot", ستغ *sätäy* – "minilmagan (egar ko'rmagan) toychoq", قونان *qonān* – "uchinchi bahorni ko'rgan ikki yoshli toychoq";

Arablardan turkmanlarga, ulardan esa butun O'rta Osiyoga tarqalgan "arab otlari zotiga mansub" bo'lgan ot "arg'umoq" ning qadimgi turkiy tilda turli fonetik variantlari: أرغماق ، أرغماق ، أرغماق *äryamāq, äryīmoq, äryumoq*; (turkman zavodlarining (ot ko'paytiriladigan fermalar) arab zotdor oti) *arğamak* (RSL, I, 299); (zotdor poygachi ot) *ärgamāk* (Zenker I, 28) kabilar qo'llangan. Tahlilga tortilgan leksemaning keltirilgan ma'nolar bilan birga "minilgan (asov emas) qoni toza zotdor ot, arg'umoq", "tezkor ot; poygachi, chopqir ot", "zotdor it", "yovvoyi ayg'ir va xonaki otning chatishmasi" (ESTYA, I, 171) kabi ma'nolarni ifodalagan. Etimologik jihatdan *aryumoq* qadimgi turkiy tilda "katta tezlik bilan yugur-" ma'nosini anglatgan *aryi-* fe'lining (ESTYA, I, 172) *aryu* shaklidan *-maq* qo'shimchasi bilan yasalgan (ESTYA, I, 171); o'zbek tilida so'z boshlanishidagi *a* unlisi *ä* unlisiga, *q* undoshi oldidagi *a* unlisi *â* unlisiga almashgan: arg'u + maq = arg'umaq > *äryumâq* (O'TEL, 34) shaklini hosil qilgan leksema ANATILda ham ayni ma'nolarni ifodalashi qayd etilib, "Muhokamat ul-lug'atayn" dan parcha keltirish asnosida dalillangan: *Yana at anvâidaki, tubučaq va aryumoq va yaka va yabu va tatu yosunluq-barin türkčä – oq ayturlar* (ANATIL, I, 120).

e) uy hayvonlari nomlari: انگن *ingan* – "tuya (urg'ochisi)", اومگان *ömgan* (BD, I,) – "otning ko'kragi, to'shi", بَدَق *bädäq* – "uzun yungli it turi, pudel", بُرَاغُو *büzäyü* – "sigir", بوغا=بوقا *büya=buqa* – "buqa", تَرِيَق *tärriq* – "keng quyruq (qo'ylarning orqasi)", ثُوْن *tüvün (tүvü)*, (ط) – "bepusht va semiz sigir", كُولُوك *kuluk* – "1) katta it 2) ulov (ot, tuya, xachir), barcha miniladigan hayvonlar; kema, arava, chana va boshqalar", مُشُوك *müşük* (BD, I,) – "mushuk", يُونْت *yunt* – "ot";

Uy hayvonlaridan biri "bichilmagan erkak qoramol" – *büqa* (O'TIL, I, 393) L. Budagov lug'atida بوغا=بوقا *büya=buqa* (BD, I, 285) chig'atoycha so'z sifatida berilgan. Qadimgi turkiy tilda "buqa, buqacha, buyvol, bug'u, *ko'chma ma'noda* baquvvat (odam haqida), zarbli musiqa asbobi, tugunlarni yechish uchun ishlatiladigan qattiq tayoq" (ESTYA, II, 230); "nasldor ho'kiz" (RSL, IV, 1802; DTS, 125); ho'kiz, qo'tos (Zen, I, 221), erkak xo'kiz, erkak kiyik (Zen, I, 222) kabi ma'nolarni anglatgan leksema *buka* tarzida ham qo'llangan: *sämiz buka tejin turuk buka tejin bilmäz ärmiş* – u yonida semiz buqa yoki ozg'in buqa turganini bilolmas emish (RSL, IV, 1802). "Devon" da *siyir buqa* münräšür – (MK, II, 79) kabi misollar mavjud.

f) qushlar nomini anglatuvchi so'zlar: ايلباسون *ilbäsün* – "o'rdak", بُرْشُق *büršüq* – "qush nomi", بَلِنْ *bälin* – "burgut", پِيْغُو وِپْغُو *piyu, üpiku* – "burgutlar turiga xos ovchi qush", تاغوق (=طاوق) *täyuk* – "tovuq", تَوْرَمْتَاي *türämtäy* (BD, I,) – "qirg'iy, burgut", توغداق *tüydäq* – "cho'lda yashovchi qushning bir turi", تَالْبِيْمَاك (ط) *tälbimäk* – (qushlarning) havoda qanot qoqib uchishi, silkinishi, uchishi", قَاچِير *qačir* – "burgutning turi - aytishlaricha 1000 yil yashovchi va o'limtik bilan oziqlanuvchi afsonaviy qush", قَاوْرُسُون *qaürsün, qaürsin* –

“qushlarning uchish patlari, patning uchi”;

“Qarchig‘aysimonlar (lochinsimonlar) oilasiga mansub yirik yirtqich ovchi qush” (O‘TIL, I, 376) sifatida ta‘riflangan *bürgut* leksemasi o‘rnida L. Budagov lug‘atida بَالِن *bälin* - “burgut” (BD, I, 269), پِيْوُ وِپُو *piyu, üpiqu* - “burgutlar turiga xos bo‘lgan ovchi qush” (BD, I, 318), تۈرۈمْتۈي *türämtäy* - “qirg‘iy, burgut” (BD, I, 389), قاچير *qačir* - “burgutning turi - aytishlaricha 1000 yil yashovchi va o‘limtik bilan oziqlanuvchi afsonaviy qush” (BD, II, 7) kabi zoonimlar qayd etilgan.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *bürgut* leksemasi “qushning bir turi” semasidan tashqari bir necha boshqa ma‘nolarni ham o‘zida mujassam etadi. *Burgut boqish qilmoq* - “ta’sirchan, o‘tkir qarash qilmoq”; ko‘chma ma’noda “yirtqich, yovuz (odam haqida)”, “jasur, qaytmas, epchil” kabi. Astroponim sifatida: Osmon ekvatori atrofida Delfin, Dalv yulduz turkumlari oralig‘ida joylashgan yulduzlar turkumini (O‘TIL, I, 377) ifoda etadi.

g) suv jonivorlari nomlari: بَالِيْغ *bäliy* - “baliq”, بۈلْغَان *bülyan* - “suvsar (Nizom-ul-Qulubning she‘rlariga ko‘ra bu so‘z mongolcha)”, چۈزۈلْغۈچ *čüzülüç* - “qisqichbaqa”, قۈرْمَاق *qürmäq* - “qurbaqa”, قَيْلْتِيق *qiltiq* - “qiltanoq (baliq suyagi)”, كِش *kış* - “samur, suvsar”;

Hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi *samur, suvsar* (BD, II, 128) so‘zlari qadimgi turkiy tilda كِش *kış* leksemasi bilan atalishini L. Budagov lug‘atida qayd etgan. V. Sevortyanga ko‘ra, leksema “suvsar (hayvon va yung)” ma’nosi turli dialektlarda mavjud, biroq o‘zbek dialektida “qunduz yoqali shuba”ga nisbatan qo‘llanilganligini e’tirof etadi (ESTYA, V, 77). A. M. Shcherbakning yozishicha, “*kuu* - turkiy tillardagi qadimgi so‘z bo‘lsa-da, uning turk leksik fondiga tegishli ekanligi aniq emas” (IRTLYA, 143). Ko‘pchilik tadqiqotchilar turkiy va samodiy so‘zlarning bir-biriga yaqinligi samodiy tillarining turkiy (eski turkiy va protooltoycha) dan o‘zlashganligi bilan bog‘lashadi. M. Ryasyanen esa o‘zlashish aksincha yo‘nalishda bo‘lganligini ta’kidlaydi. Uning boshqa bir asarida esa, ko‘rinishidan, u har ikki tomonga o‘zlashgan bo‘lishi ehtimolini aytadi: turkiy *kış* “suvsar”, yak. *kis* < yoki > samod. *šī*. Turkiy va samodiy shakllari o‘rtasida aloqa bor deb hisoblarkan, G. Dyorfer o‘zlashishning har ikki tomondan ekanligini qayd etadi, ammo shu o‘rinda turkiy va samodiy so‘zlarning identifikatsiya qilishdagi fonetik muammolarni ko‘rsatadi va ularning o‘xshashligi tasodifiy bo‘lishi mumkin, degan xulosaga keladi (ESTYA, V, 77).

O‘TELda tahlilga tortilgan leksema to‘g‘risida ma’lumot qayd etilmagan. O‘TILga ko‘ra, leksema arabcha سَمُور *sāmūr* - “suvsar”ning “Sibir suvsari” hamda “shu hayvonning terisi, mo‘ynasi. *Samur po‘stin.*” kabi ma‘nolari (III, 436) keltirilgan, *suvsar*ning izohi “1) qimmatbaho, qalin va yumshoq mo‘ynali yirtqich sutemizuvchilar oilasining bir turi va uning mo‘ynasi; tosh suvsar - suvsarning tog‘li joylarda yashaydigan turi; 2) shu hayvonning mayin baroq terisi. *Suvsar telpak.*” (O‘TIL, III, 579) deya ta‘riflangan.

h) yirtqich hayvonlar nomlari: بۈچْكَم *büčkäm* - “bo‘ri, turk qabilalaridan birining nomi”, بۈلْئَه *bülsä, bültä* - “chiyabo‘ri”, بۈلْبَارِس *bülbärs* - “sher”, تَارْلَان *tärlän* - “yirtqich, ovchi hayvon yoki qushlar”, تۈكْلۈ (تۈلكۈ) *tüklü (tülki)* - “tulki”, چَغَال=چَغُن *čayan=čayal* - “shoqol”, چۈغە *čüya, jüya* - “hayvoncha, yirtqich hayvonlar bolasi”, چۈنْگ *čünğ* - “shoqol”, دۈلتۈ *dültü* (BD, I,) - “giyena, sirtlon”, يېگەن *yigen* - “bo‘ri”.

Lug‘atda yirtqich hayvonlarni ifodalovchi leksemalardan biri تۈكْلۈ (تۈلكۈ) *tüklü (tülki)* - “tulki” (BD, I, 401) zoonimi keltirilgan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida “bo‘risimonlar oilasiga mansub, tumshug‘i uzun, dumi mayin uzun junli, o‘ta sezgir va ayyor yirtqich sutemizuvchi hayvon; shu hayvonning mo‘ynasi va undan tayyorlangan telpak; (*ko‘chma*)

o'taketgan ayyor, makkor odam haqida" (O'TIL, IV, 186) fikrni ifodalash uchun *tülki* leksemasi qo'llanilgan.

O'TILda "bo'risimonlar oilasiga mansub" bo'lgan *tülki* leksemasi O'TELda "itlar turkumiga mansub, tumshug'i uzun, dumi mayin uzun junli yirtqich sutemizuvchi hayvon" deya ta'riflangan. "Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu ot to'rt xil talaffuz qilingan: *tilki, tilkü, tülki, tülkü*; o'zbek tiliga *tülki* shakli tarkibidagi *ü* unlisining yumshoqlik belgisi yo'qolib yetib kelgan. To'rt shaklning ikkitasida unlilar uyg'unligi mavjud: *tilki, tülkü*; ikkitasida bunday uyg'unlik yo'q: *tilkü, tülki*. Demak, tovush jihatidan bu so'z ikki qismga ajralmoqda: *til* // *tül* qismiga va *-ki* // *kü* qismiga. Bu so'zning ikkinchi qismini ot (sifat) yasovchi qo'shimcha deb aytish mumkin; unda *til* - // *tül* qismi fe'l bo'lib chiqadi, lekin bu so'zning ma'nosini aniqlab bo'lmadi. A. M. Shcherbak o'z asarida V. Bangning bu so'z tarkibida metateza voqe bo'lganini, *tülki* so'zi asli *tük* ("soch", "qil") otidan - li qo'shimchasi bilan yasalgani haqidagi fikrni keltirgan: *tük + li = tükli > tülki*" (O'TEL, 358).

i) hasharotlar: *ایشنار išnār* - "yonuvchi narsa, yonar qurt", *تونگوزلان* va *تورشاتونگوزلان* va *توموزغان* - "qo'ng'iz", *جولجان jüljān* (č)- "qizil qurt", *türsä tünkuzlän tünuzlän*, va *tümüzyan* - "qo'ng'iz", *چالا čälä* - 1) o'rgimchak to'riga tushgan pashshaning qanoti, 2) o'zb. yarim yongan o'tin; yarim", *دولمک dülümäk* - "katta zaharli o'rgimchak", *رونچقه rävinčqa* - "daraxtni kemiruvchi qurt, kuya (hasharot)", *سینک (= سینک) sinäk (sin)* (BD, I,) - "1) chivin 2) ko'za", *قورت*, *قوت*, *قورط* *qurt, qut* - "1) qurt (hasharot) 2) bo'ri";

L. Budagov lug'atida "hasharotlar" guruhiga kiruvchi chig'atoycha *قورط*, *قوت*, *قورت* *qurt, qut* zoonimi "1) qurt (hasharot) 2) bo'ri"; (BD, II, 74) ma'nolarini anglatuvchi leksema qadimgi turkiy tilda 1) "mayda zararkunandalar; ipak qurti, tut ipak qurti - turk, o'zbek, uyg'ur lahjasida; otning ichagida bo'ladigan uzun parazit qurt; kapalak qurti (гусеница); lichinka; asalar; hasharot; kuya"; qo'ng'iz; 2) "bo'ri; hayvon; yovvoyi hayvon; yirtqich hayvon" (ESTYA, VI, 167) kabi ma'nolarni anglatgan. Zoonim ifodalagan ma'nolarga diqqat qilinsa, *кү:рт* so'zida "bo'ri" ma'nosining paydo bo'lishi, ko'pchilik tadqiqotchilarning taxminicha, turli to'siqlar bilan aloqador. Huddi shunday ma'nolar farqi tur. *böcek* "hasharot" va turk. *мә:жәк* "bo'ri" so'zlarida ham kuzatiladi. Shu sababli har ikkala so'zning o'z mustaqil tarixi mavjud deb hisoblanganda ham, Dj. Kloson turkiy dialektda *күрт* "qurt" va *күрт* bo'ri"larning aloqadorlik xususiyati noaniq der ekan, uning haq bo'lish ehtimoli juda kam (ESTYA, VI, 168).

قورط, *قوت*, *قورت* *qurt, qut* leksemasining birlamchi ma'nosi "asalar", "qurt (гусеница)", "ipak qurti" ma'nolari so'z birikmalari yordamida shakllangan, masalan, *бал кўрты*, *умарта кўрты* "asalar", *күбәләк кўрты* "kapalak qurti (гусеница)", *ййфәк кўрты* "ipak qurti, tut ipak qurti", *чув. пыл хурчә* "asalar", *тув. торгу кўрты* "tut qurti" (ESTYA, VI, 168).

Eski o'zbek adabiy tilida ham "qurt, hasharot" hamda *qurt-u qush* birikma holatida "butun jonlilar" ma'nolarida qo'llanganini Alisher Navoiyning asarlari orqali ko'rish mumkin:

Oshkor	aylab	adolat	olamin,
Yer	suvda	mavjud	g'amin
		qurt-u	qush

(*Lisonut-tayr*, 3-11) (ANATIL, IV, 80).

Hozirgi o'zbek adabiy tilida *قورط*, *قوت*, *قورت* *qurt, qut* leksemasi 1) uzun tanasini egib-yozib yoki juda ko'p oyoqlari vositasida sudralib yuradigan umurtqasiz mayda jonivor (ko'k qurt); 2) ba'zi hasharotlar, mayda organizmlar nomi tarkibiga kiradi (shilliq qurt, eshak qurt); 3) ba'zi hasharotlarning tuxumidan yuzaga keladigan g'umbak (olma qurti); 4) asosan tut bargi

bilan boqiladigan, yetilib pilla o'raydigan shunday g'umbak (Qurt boqmoq. Qurt tutmoq.) kabi ma'nolarda qo'llaniladi (O'TIL, V, 384). Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, tahlilga tortilgan leksemada ma'no kengayishi yuzaga kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдушукуров Б. XI-XIV асрларга оид ёзма манбалар тили. – Тошкент: Nodirabegim, 2020. – Б. 7.
2. Абдушукуров Б. Алишер Навоий асарларидаги зоонимлар. Алишер Навоий ва XXI аср мавзуидаги Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Тошкент: Tamaddun, 2017. – Б. 220.
3. Абдушукуров Б.Б. XI-XIV аср туркий ёзма манбалар тилидаги зоонимлар. Филол.фан. номз.... дисс. – Т., 1998. –Б. 207;
4. Абдушукуров Б. “Қисаси Рабғузий” асаридаги зоонимлар. Лингвист IV. –Т.: Akademnashr, 2013. –Б.18;
5. Будагов, Л. 1869. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. – Санкт-Петербург. I, II том.
6. Древнетюркский словарь. – Л: Наука, 1969. – С. 676.
7. Фозилов, Э.И. 1983-1985. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. IV жилдлик. – Тошкент: Фан.
8. Madvaliyev A. tahriri ostida. 2020. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.
9. Mahmud Koshg'ariy. 1963. Devonu lug'otit turk. Toshkent.
10. Раҳматуллаев Ш. 2000. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Тошкент: Университет.
11. Севортян Э. 1974. Этимологический словарь тюркских языков. Общeturкские и междeturкские основы на гласные. – М: Наука.
12. Tuxtasinova M. L. Budagovning “Сравнительный словарь турецко-татарских наречий” lug'ati uchun asos bo'lgan manbalar // O'zbekiston: Til va madaniyat. Lingvistika. – Toshkent, 2022, vol 2 (1). –Б. 88-111.
13. Зарипов Б. Зоонимларнинг бадий санъат турларини ҳосил қилишдаги иштироки. Филол.фан. номз.... дисс. – Т., 2002. –Б. 128.